

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILIY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASSTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG'I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILY IMKONIYATLARI	217
Atayev Jaxongir Erkinovich	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH	221
M.O.Yuldoshova	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR	231
To'rayev Rasul Nortoijevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI	236
Iminova Nargizaxon Akramovna	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	241
Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich	
PAXTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ	253
Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH	259
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI	265
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА	280
Тен Марина Владимировна	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI	287
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
Mansurov Obid Zaynidinovich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI	296
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
Norova Nozima Nabiyeвна	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayevich	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	325
Бобоев Л Кадрхужа Джураходжаевич	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI.....	331
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	339
Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беговот Шералиевич	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
Umarova Durdona Abdumannabovna	



ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

Umarova Durdona Abdumannabovna

Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot elektron hukumat tizimlarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi boshqaruv mexanizmlarini aniqlash va baholashga qaratilgan. Tadqiqotda Qozog'iston va O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil o'tkazilib, elektron hukumat ko'rsatkichlarining o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganildi. Xususan, raqamli davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, inson kapitali, axborot xavfsizligi va davlat-xususiy sheriklikning roli tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, elektron hukumat tizimining barqaror o'sishi samarali boshqaruv mexanizmlariga bevosita bog'liq. Tadqiqot yakunida O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Elektron hukumat, raqamli boshqaruv, davlat xizmatlari, boshqaruv mexanizmlari, Qozog'iston tajribasi, raqamli transformatsiya.

Abstract. The purpose of this study is to identify and evaluate governance mechanisms that ensure the sustainable development of e-government systems. The study provides a comparative analysis of Kazakhstan and Uzbekistan and examines the key factors influencing the growth of e-government indicators. Specifically, a system approach is used to analyze the role of digital public policy, regulatory frameworks, human capital, information security, and public-private partnerships. The results demonstrate that the sustainable growth of e-government system is directly dependent on effective governance mechanisms. The study concludes with practical recommendations for Uzbekistan.

Keywords: e-government, digital governance, public services, governance mechanisms, Kazakhstan's experience, digital transformation.

Аннотация. Целью данного исследования является выявление и оценка механизмов управления, обеспечивающих устойчивое развитие систем электронного правительства. В исследовании проведен сравнительный анализ на примере Казахстана и Узбекистана и изучены основные факторы, влияющие на рост показателей электронного правительства. В частности, на основе системного подхода проанализирована роль цифровой государственной политики, нормативно-правовой базы, человеческого капитала, информационной безопасности и государственно-частного партнерства. Результаты показывают, что устойчивый рост системы электронного правительства напрямую зависит от эффективных механизмов управления. В заключение исследования разработаны практические рекомендации для Узбекистана.

Ключевые слова: электронное правительство, цифровое управление, государственные услуги, механизмы управления, опыт Казахстана, цифровая трансформация.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimlarini tubdan transformatsiya qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali davlat xizmatlari samaradorligi, shaffoflik darajasi hamda fuqarolar bilan o'zaro munosabatlar sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Shu jihatdan, elektron hukumat tizimi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning muhim instrumenti sifatida shakllanmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan, Qozog'iston va O'zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Qozog'iston yuqori darajada integratsiyalashgan raqamli platformalar orqali yetakchi pozitsiyani egallagan bo'lsa, O'zbekiston "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron xizmatlar hajmi va qamrovini jadal kengaytirmoqda. Shu bilan birga, elektron hukumat tizimlarini rivojlantirishda asosiy muammolardan biri bu ko'rsatkichlarning barqaror o'sishini ta'minlashdir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sonining ortishi har doim ham tizim samaradorligi va barqaror rivojlanishini kafolatlamaydi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan texnologik va foydalanuvchi xulq-atvori jihatlariga qaratilgan bo'lib, elektron hukumatning barqaror o'sishini ta'minlovchi boshqaruv mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot elektron hukumat tizimi ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlovchi boshqaruv omillarini tahlil qilish hamda Qozog'iston tajribasi asosida O'zbekiston uchun amaliy xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi elektron hukumat samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy boshqaruv omillari: raqamli siyosat, normativ-huquqiy baza, inson kapitali va davlat-xususiy sheriklikni tizimli tahlil qilish orqali ularning xizmatlar rivojlanishiga ta'sirini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron hukumatning barqaror rivojlanishi masalasi so'nggi yillarda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylangan. Mazkur sohada yetakchi olimlardan biri bo'lgan Richard Heeks elektron hukumatni rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy etish jarayonini tahlil qilib, u ko'pincha institutsional nomuvofiqliklar sababli muvaffaqiyatsizlikka uchrashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, texnologik yechimlardan ko'ra boshqaruv tizimi, inson kapitali va siyosiy muhit muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Elektron hukumat konsepsiyasining nazariy asoslari Darin Barney tomonidan kengroq ijtimoiy kontekstda tahlil qilinadi. U davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning raqamli transformatsiyasini muhokama qilib, elektron hukumatni faqat texnologik platforma emas, balki demokratik institutlarni mustahkamlovchi vosita sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, Viktor Mayer-Schönberger katta ma'lumotlar (big data) va davlat boshqaruvi integratsiyasi orqali qaror qabul qilish jarayonlarining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini asoslab beradi.

Rivojlanayotgan davlatlarda elektron hukumat tizimlarini joriy etish va barqarorligini ta'minlash masalalari Norris Pippa tomonidan chuqur o'rganilgan. U 2001-yilda e-government va demokratik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, raqamli texnologiyalar davlat xizmatlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishini, biroq ijtimoiy tengsizlik muammosini ham yuzaga keltirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuv O'zbekiston va Qozog'iston kabi o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlar uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari kontekstida elektron hukumatni rivojlantirish masalalari Alisher Kholmiraev va Bakhtiyor Eshchanov tadqiqotlarida yoritilgan bo'lib, ularda davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida institutsional islohotlarning muhimligi asoslab berilgan. Ushbu tadqiqotlarda O'zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanishi 2019-yildan keyingi islohotlar bilan yangi bosqichga ko'tarilgani, ayniqsa Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali xizmatlar ko'lamini kengaytganini ta'kidlanadi.

Qozog'iston tajribasi esa Zhandos Kenzhegaliyev tadqiqotlarida aks etgan bo'lib, u yerda elektron hukumat tizimi nisbatan erta shakllangan va davlat xizmatlarining katta qismi to'liq onlayn shaklga o'tkazilgani qayd etiladi. Suleimenov Madi esa Qozog'istonning "Digital Kazakhstan" dasturi orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga erishilganini, biroq hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutlar hali ham saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Elektron hukumat samaradorligini baholash metodologiyasi bo'yicha Tomasz Janowski muhim ilmiy yondashuvni taklif etib, u e-governmentni rivojlanish bosqichlari orqali tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlatlar elektron hukumatni oddiy axborot taqdim etish bosqichidan to to'liq integratsiyalashgan raqamli ekotizim bosqichigacha rivojlantirishi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Qozog'iston nisbatan integratsiyalashgan modelga yaqinlashgan bo'lsa, O'zbekiston hozirda faol transformatsiya bosqichida ekanligi kuzatiladi.

Shuningdek, United Nations Department of Economic and Social Affairs tomonidan e'lon qilinadigan E-Government Development Index hisobotlari ham muhim manba sifatida xizmat qiladi. 2022-yilgi hisobotga ko'ra, Qozog'iston Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlardan birini egallagan bo'lsa, O'zbekiston ham sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Bu esa har ikkala davlatda elektron hukumatni barqaror rivojlantirish uchun institutsional va texnologik asoslar shakllanayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron hukumatning barqaror rivojlanishi faqat texnologik infratuzilma bilan emas, balki institutsional islohotlar, inson kapitali, siyosiy iroda va ijtimoiy inklyuziya bilan chambarchas bog'liqdir. Qozog'iston va O'zbekiston tajribasini qiyosiy o'rganish esa ushbu jarayonning turli rivojlanish modellari mavjudligini va ularning har biri milliy sharoitga mos holda shakllanishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda elektron hukumat tizimi ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlovchi boshqaruv mexanizmlarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot doirasida qiyosiy tahlil usuli orqali Qozog'iston va O'zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanish ko'rsatkichlari



solishtirildi. Ushbu usul mamlakatlar o'rtasidagi farqlar, o'xshashliklar va samarali boshqaruv amaliyotlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tizimli tahlil qo'llanilib, elektron hukumat tizimiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — raqamli davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, inson kapitali, axborot xavfsizligi va davlat-xususiy sheriklik — o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Tadqiqotda, shuningdek, institutsional yondashuvdan foydalanilib, davlat boshqaruvi samaradorligiga ta'sir etuvchi tashkiliy va huquqiy mexanizmlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbalari sifatida xalqaro tashkilotlar hisobotlari (BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi — EGD, Jahon bankining GovTech indeksi), milliy statistik ma'lumotlar, shuningdek, rasmiy elektron hukumat portallari (eGov.kz va my.gov.uz) ma'lumotlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida sifat va miqdoriy ma'lumotlarni umumlashtirish, tendensiyalarni aniqlash va ularning sabab-oqibat bog'liqligini ochib berishga alohida e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qozog'iston Respublikasida elektron hukumat tizimi izchil va bosqichma-bosqich rivojlantirilib, dastlab davlat axborot resurslarini shakllantirish va ochiq axborot portallarini yaratishdan boshlangan. Ushbu bosqichda davlat organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamli shaklda taqdim etish asosiy vazifa bo'lgan. Keyingi bosqichlarda "eGov.kz" elektron portali va "eGov.kz Mobile" mobil ilovasi ishlab chiqilib, interaktiv xizmatlar joriy etildi hamda fuqarolarga onlayn murojaat yuborish, hujjatlarni elektron shaklda olish imkoniyatlari yaratildi.

Portal Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 10-noyabrdagi №1471-sonli "2005–2007-yillarda Qozog'iston Respublikasida "Elektron hukumat"ni shakllantirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan va 2006-yilda ishga tushirilgan. Portal orqali fuqarolar hamda tashkilotlar istalgan vaqtda davlat xizmatlari va ma'lumotlardan foydalanish va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lgan. Tranzaksion xizmatlarning kengayishi esa davlat xizmatlaridan to'liq raqamli tarzda foydalanish, to'lovlarni amalga oshirish va natijalarni masofadan turib olishni ta'minladi. Natijada, bugungi kunda Qozog'istonda davlat xizmatlarining katta qismi yagona elektron platformalar orqali taqdim etilmoqda, bu esa boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda davlat xizmatlarining 90 foizdan ziyodi raqamlashtirilgan bo'lib, portal va mobil ilova orqali 1,200 dan ortiq xizmat taqdim etilmoqda. Portal foydalanuvchilari soni 14,8 milliondan oshgan, eGov Mobile ilovasi esa 11 milliondan ziyod yuklab olingan. So'nggi yillarda portaldan foydalanish ko'rsatkichlari barqaror o'sishni qayd etmoqda. Xususan, 2024-yil birinchi yarim yilligida 20 milliondan ziyod xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2025-yilning ayni davrida ushbu raqam 26 milliondan oshgan. Xizmatlarning qariyb yarmi mobil ilova orqali amalga oshirilmoqda. Umumiy hisobda, elektron hukumat tizimi yo'lga qo'yilganidan beri fuqarolarga 573 million marotaba elektron xizmat ko'rsatilgan: shundan 489 mln — eGov.kz portali orqali, 84 mln — eGov Mobile mobil ilovasi orqali amalga oshirilgan.

Oddiy ma'lumotnoma va asosiy xizmatlardan tashqari, qozog'istonliklar yangi raqamli vositalardan ham faol o'zlashtirmoqda. Eng talab yuqori xizmatlar orasida Nomad Guard xizmati orqali ma'lumotlar sizib chiqishini tekshirish, eGov Mobile ilovasi orqali 073/u shaklidagi tibbiy ma'lumotnomani rasmiylashtirish, shuningdek, yo'lda kuzatilgan muammolar haqida avto egasiga xabar yuborish imkoniyatini beruvchi "Avtomobil egasiga muammo haqida xabar berish" xizmati mavjud. Shu bilan birga, fuqarolar orasida "Qonun va tartib" xizmati ham ommalashgan bo'lib, u turli hodisalar bo'yicha politsiyaga real vaqtda murojaat yuborish imkonini beradi — masalan, YHHB yo'l-transport hodisalaridan tortib, maishiy zo'ravonlik holatlarigacha. Mamlakatimizda esa onlayn xizmatlar uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (Yagona portal) 2013-yilda ishga tushirilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining onlayn davlat xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan interaktiv portallarining taqqoslama jadvali

Ko'rsatkich	Qozog'iston (2025 y.)	O'zbekiston (2025 y.)
Foydalanuvchilar soni	> 14,8 mln foydalanuvchi (2025 y.da 270 mingga o'sish)	> 12 mln foydalanuvchi (2025 y.da 2 mingga o'sish)
Xizmatlar soni	700 dan ortiq xizmat	770 dan ortiq xizmat (2025 y.da 75 ta xizmatga ko'paygan)
Ko'rsatilgan xizmatlar statistikasi (portal + mobil ilova)	2025 y. 1-yarim yilligida ≥ 26 mln, 45 % mobil ilovadan	2025 y.da > 20 mln murojaat, 46 % mobil ilovadan
Davlat xizmatlari raqamlashtirish darajasi	> 90 % xizmatlar onlaynda mavjud	> 60 % xizmatlar onlaynda mavjud



Mobil ilova	11 mln foydalanuvchi (2025 y.da 1,1 mlnga o'sish) 1000 dan ortiq xizmat va servis, 38 ta raqamli hujjat	6,5 mln foydalanuvchi (2025 y.da 1,5 mlnga o'sish) 565 xizmat va servis, 17 ta raqamli hujjat
Asosiy autentifikatsiya usullari	- Elektron raqamli imzo - SMS-parol (JSHSHR orqali) - Mobile ID (SIM-karta orqali) - Biometric ID (yuz/barmoq izi, sinovda)	- Login + parol - Mobile ID (SIM-karta orqali) - Elektron raqamli imzo - MyID (yuzni tanish)
Qo'llab-quvvatlash va muloqot	Yagona kontakt-markaz 1414, oflayn va kuchli ravishda qo'llab-quvvatlash (XQTLar orqali)	Yagona kontakt-markazi 1242, taklif va shikoyatlar uchun qo'shimcha kontakt 1148, AI chat boti MuxlisaAI portal orqali, onlayn muloqotga urg'u
Interfeys inklyuzivligi	WCAG 2.0 standartiga moslashuvchanligi, kontrast, shrift, navigatsiya sozlamalari mavjud	WCAG 2.0 standartiga moslashuvchanligi, klaviatura orqali to'liq navigatsiya, barcha grafik elementlar alternativ matnlar bilan ta'minlangan, ekran diktorlari va yordamchi texnologiyalar qo'llab-quvvatlangan, kontrast, shrift, navigatsiya sozlamalari mavjud
Innovatsiyalar / AI qo'llab-quvvatlash	eGov AI chat-boti, QazTech asosida eGov 3.0 yangi portali rejalashtirilgan	Mobil yuz tanish (MyID), ovozli yordamchi «Muxlisa», portalning yangi versiyasi, yaxshilangan dizayn
Portalni texnik qo'llab-quvvatlash tashkiloti	"Milliy axborot texnologiyalari" AJ	"Yagona integrator UZINFOCOM" MCHJ
Kuchli jihatlari	Xizmatlar soni ko'p, proaktivlik, yuqori integratsiya darajasi	Interfeys soddaligi, xizmatlar sonining tez o'sishi, aholi ehtiyoji negizida mahallaylashtirilgan

Mazkur portal 2017 va 2024-yillarda modernizatsiya qilingan. Hozirgi kunda unda yiliga yangi 100 ta elektron xizmat joriy etilib, ularning umumiy soni 2025-yil yakuni bo'yicha 800 taga yetdi. Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 13 milliondan ortgan. Yagona portal orqali taqdim etilgan xizmatlar soni 42,2 mln.dan oshdi. Misol uchun, 2025-yilda aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan eng ko'p foydalanilgan ommabop xizmatlar quyidagilardan iborat: bolani bog'chaga navbatga qo'yish (1,7 mln.), o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish (1,5 mln.ta) va boshqalar. 2025-yil davomida aholining elektron davlat xizmatlariga ishonchi yanada oshib, pullik davlat xizmatlarining 74,2 foizi Yagona portal orqali onlayn shaklda va 25,8 foizi Davlat xizmatlari markazlariga borib, oflayn shaklda foydalanilgan (2024-yilda bu ko'rsatkich 67,2 foiz onlayn va 32,8 foiz oflayn bo'lgan).

Yagona portalning mobil ilovasida 75 ta yangi elektron xizmat joriy etilib, ularning umumiy soni 600 taga yetdi. Yagona portal mobil ilovasidan foydalanuvchilar soni 9,5 mln. nafardan oshdi (2024-yil yakuni bo'yicha 4 mln. nafar). Elektron xizmatlarni ko'rsatish nuqtalarini kengaytirish maqsadida 30 ta tijorat banklari, onlayn to'lov tizimlari va mobil operatorlarning mobil ilovalarida 33 ga yaqin xizmatlarni ko'rsatish imkoniyati yaratilib, ushbu xizmatlardan jami 2 mln.dan ortiq marotaba foydalanildi. Yagona portal mobil ilovasi 2025-yilda eng ommabop ilovalar TOP-5 taligiga kirdi. Mahalliy ilovalar ichida esa TOP-2 talikdan joy oldi (Uzum Market ilovasidan so'ng 2-o'rinda). Raqamli hukumatni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etildi. Xususan, 2025-yilda Samarqandda o'tkazilgan "BMT Davlat xizmatlari forumi 2025" doirasida O'zbekiston "Elektron hukumatdagi yutuqlari uchun" maxsus mukofoti bilan taqdirlandi.

Ta'kidlash joizki, dunyoda mamlakatlarda elektron hukumat tizimi rivojlanish tendensiyalarini kuzatib boradigan bir nechta yirik reytinglar mavjud. BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida (E-Government Development Index — EGDI) O'zbekiston 2024-yilda avvalgi hisobotga nisbatan 6 pog'onaga ko'tarilib, 193 ta davlat orasida 63-o'rinni egallagan bo'lsa, Qozog'iston 28-o'rindan 24-o'ringa ko'tarilgan.

Qozog'istonning BMT reytingidagi o'rnini tahlil qiladigan bo'lsak, elektron hukumat tizimi ko'rsatkichlarining barqaror o'sishida samarali boshqaruv mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Xususan, raqamli davlat siyosatining izchil amalga oshirilishi elektron hukumatni rivojlantirish uchun strategik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazaning doimiy takomillashtirib borilishi elektron xizmatlarni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Davlat xizmatchilarining raqamli kompetensiyalarini oshirish boshqaruv sifatini yaxshilashga, axborot xavfsizligini ta'minlash esa fuqarolarning elektron xizmatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik esa innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish va xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.



Qozog'iston tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron hukumat tizimi samaradorligini oshirish uchun boshqaruv mexanizmlarini uzluksiz takomillashtirish zarur. Bu jarayonda yagona raqamli platformalarni rivojlantirish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish orqali qarorlar qabul qilish sifatini oshirish hamda aholining raqamli savodxonligini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar elektron hukumat ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Qozog'istonda elektron hukumat tizimi ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi boshqaruv mexanizmlari

Boshqaruv mexanizmi	Mazmuni	Elektron hukumatga ta'siri
Raqamli davlat siyosati	Raqamlashtirish strategiyalarini izchil amalga oshirish	Elektron xizmatlar soni va sifati oshadi
Normativ-huquqiy baza	Qonun va me'yoriy hujjatlarni yangilash	Huquqiy aniqlik va barqarorlik ta'minlanadi
Kadrlar salohiyati	Davlat xizmatchilarining raqamli ko'nikmalarini oshirish	Boshqaruv samaradorligi kuchayadi
Axborot xavfsizligi	Ma'lumotlarni himoyalash tizimlarini rivojlantirish	Fuqarolarning ishonchi ortadi
Davlat–xususiy hamkorlik	Xususiy sektor bilan innovatsion hamkorlik	Texnologiyalar tez joriy etiladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, elektron hukumat tizimining samarali rivojlanishi kompleks omillarga bog'liq bo'lib, bunda nafaqat texnologik infratuzilma, balki samarali boshqaruv mexanizmlari ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qozog'iston tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron hukumat tizimi ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi izchil raqamli siyosat, mustahkam normativ-huquqiy baza, rivojlangan inson kapitali va kuchli institutsional muhit orqali ta'minlanadi. Ushbu omillar tizimning samaradorligini oshirib, fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham elektron hukumat tizimini rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, tizimning barqaror o'sishini ta'minlash uchun boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- yagona raqamli platformalar integratsiyasini chuqurlashtirish;
- sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini optimallashtirish;
- aholining raqamli savodxonligini oshirish orqali xizmatlardan foydalanish darajasini kengaytirish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali innovatsion texnologiyalarni tez joriy etish.

Mazkur chora-tadbirlar elektron hukumat tizimi samaradorligini oshirish, davlat xizmatlarining sifatini yaxshilash hamda fuqarolarning raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdug'aniyev A. (2020). Elektron hukumat va davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish. Toshkent: "Fan va texnologiya".
2. Mamatqulov K. (2021). Raqamli iqtisodiyot va elektron davlat xizmatlari. Toshkent: "Iqtisodiyot".
3. Raqamli texnologiyalar vazirligi. Ochiq ma'lumotlar to'plami. Toshkent, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvi samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-76-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-6472528>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
6. Heeks R. Information and Communication Technology for Development. – London: Routledge, 2002.
7. Heeks R. Implementing and Managing eGovernment. – London: Sage Publications, 2006.
8. Norris P. Digital Divide: Civic Engagement, Information Poverty, and the Internet Worldwide. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
9. Barney D. The Network Society. – Cambridge: Polity Press, 2004.
10. Mayer-Schönberger V., Cukier K. Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think. – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2013.
11. Janowski T. Digital Government Evolution: From Transformation to Contextualization. Government Information Quarterly, 2015.
12. United Nations. E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. – New York: UN DESA, 2022.
13. Kholmiraev A. Public Administration Reforms in Uzbekistan. – Tashkent, 2020.
14. Eshchanov B. Digital Economy in Central Asia: Trends and Challenges. – Almaty, 2021.
15. Kenzhagaliyev Z. E-Government Development in Kazakhstan. – Astana, 2019.
16. Suleimenov M. Digital Kazakhstan Program and Public Services. – Almaty, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100